

XIX ASRNING 2-YARMIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOY HAYOT VOZEH ASARLARI MISOLIDA

Saodat Abdullayeva

Buxoro Davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15555403>

Annotatsiya. XIX asrning 2-yarmidagi Buxoroning siyosiy-ijtimoiy hayoti amir Nasrulloxon(1826-1860) hamda amir Muzaffarxonlar(1860-1885)ning nomlari bilan ko'zga tashlanadi. Fikr yuritilayotgan davr tarixini, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy hayotini o'rganishda esa ular bilan hamnafas bo'lgan zamondosh olimlarning bizgacha yetib kelgan asarlari muhim rol o'ynaydi. XIX asr oxiridagi Buxoro amirligidagi axloqiy qadriyatlar haqida ma'lumot beruvchi asarlar orasida bir necha muhim manbalar mavjud. Ushbu davrda yozilgan asarlar, ayniqsa, Buxoro amirligining axloqiy qadriyatlari, diniy qarashlar va madaniy an'analari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etgan. Ushbu maqolada ijtimoiy sohaning asosiy metodlaridan chuqur tahlil qilish hamda tarixiylik usuli asosida aniqlangan ma'lumotlardan foydalanilgan holda Vozehning asarlari misolida amirlikdagi ijtimoiy hayot qisman bo'lsada yoritib beriladi. Aynan fikr yuritilayotgan davr tojik adabiyotida ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri Rahmatulloh Vozehdir. Vozeh qalamiga mansub bir necha mashhur asarlardan xususan, "Aqoid un nisa" risolasidan foydalanib Buxoro xalqining ijtimoiy tarixi bayon etiladi. Olimning boshqa zamondosh shoirlardan farqini ham aynan Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayotni ochiqchasiga, hech qanday oshirib yozishlarsiz, xolis va haqqoniy bayon etganligida, kamchiliklarni yashirmaganligida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Rahmatulloh Vozeh, Anoid un-nisa, madrasa, Qur'on, hadis, shariat, qori, ayollar, g'usl, jamiyat, Buxoro amirligi

Аннотация. Политическая и общественная жизнь Бухары второй половины XIX века отмечена именами Эмира Насруллы-хана (1826-1860) и Эмира Музаффар-хана (1860-1885). Написанные в этот период произведения содержат важную информацию, особенно о нравственных ценностях, религиозных взглядах и культурных традициях Бухарского эмирата. В данной статье с использованием основных методов социальных наук, глубокого анализа и данных, определенных на основе исторического метода, дается частичный обзор общественной жизни в эмирате на примере произведений Вохеха. На примере ряда известных произведений Вохеха, в частности трактата «Акоид ун ниса», описывается социальная история бухарского народа. Отличие ученого от других современных ему поэтов можно увидеть в его откровенном, беспристрастном и правдивом описании общественной жизни Бухарского эмирата, без каких-либо преувеличений и сокрытия недостатков.

Ключевые слова: Рахматулла Вазе, Анаид ун-Ниса, медресе, Коран, хадис, шариат, чтеец, женщины, полное омовение, общество, Бухарский эмират.

Abstract. The political and social life of Bukhara in the second half of the 19th century is highlighted by the names of Emir Nasrullah Khan (1826-1860) and Emir Muzaffar Khan (1860-1885). The works written during this period, in particular, provided important information about the moral values, religious views and cultural traditions of the Bukhara Emirate.

This article, using the basic methods of in-depth analysis of the social sphere and the information determined on the basis of the historicist method, partially sheds light on the social life of the emirate using the example of Vozeh's works. Using several famous works by Vozeh, in particular the treatise "Aqoid un nisa", the social history of the Bukhara people is described. The difference of the scientist from other contemporary poets can be seen precisely in the fact that he openly, without any exaggeration, objectively and truthfully described the social life of the Bukhara Emirate, and did not hide its shortcomings.

Keywords: *Rahmatullah Wazeh, Anaid un-nisa, madrasa, Quran, hadith, Sharia, reciter, women, ghusl, society, Bukhara Emirate.*

Kirish

XIX asr oxiridagi Buxoro amirligidagi axloqiy qadriyatlar, o'sha davrning jamiyat tuzilishi, diniy, madaniy va siyosiy holati bilan chambarchas bog'liq edi. Bu davrda Buxoro amirligi o'zining mustaqil davlat sifatida, shuningdek, islom dini va Sharq adabiyotining ta'sirida rivojlanib borgan.

Buxoroning axloqiy qadriyatlari asosan diniy-islomiy ta'limotlar, an'anaviy Sharq madaniyati va jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalar bilan belgilangan. Islom dini Buxoro amirligidagi axloqiy qadriyatlarning asosini tashkil etardi. Qur'on, hadis va shariat qonunlari asosida yashash, musulmonlarning hayotida muhim o'rin tutgan. Axloqiy fazilatlar, masalan, halollik, poklik, sabr, yaxshilik, vafodorlik va odob bu davrda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda ularga amal qilish talab qilinardi. Davrining ilg'or va ma'rifatparvar mualliflaridan biri Vozeh taxallusi ostida ijod qilgan asl ismi Rahmatulloh ibn Muhammad Ashur Buxoriy sanaladi. Bo'lajak shoir 1817-yilda Buxoroda Ashur Muhammad oilasida dunyoga keladi. Ta'limning dastlabki bosqichini ota-onasidan o'rgangan shoir, Qoriyon deb nomlanuvchi maktabda savodini chiqarib, ilm dengiziga sho'ng'iydi hamda dinimizning muqaddas kitobi Qur'oni karimga bo'lgan qiziqishi bois qorilar maktabida Qur'onni yod oladi hamda Qori degan unvonga ega bo'ladi. Diniy va dunyoviy ilm olish uchun madrasalar va ilmiy markazlari ham anchagina salmoqli bo'lgan. Vozeh 1844-yil 27 yoshida madrasani muvaffaqiyatli tamomladi. Shundan so'ng yosh ilm ixlosmandi ba'zi dunyoviy ilmlarni chuqurroq o'rgana boshlaydi. Bu ilmlar orasida tasviriy san'at, tarix, tibbiyot, geometriya, munajjimlik, mantiq hamda munajjimlik singari sohalar mavjud edi. Vozeh uch tilda: tojik, arab va o'zbek tillarida she'rlar yozgan. Adabiy-tarixiy manbalarga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, Vozehning har uchala tilda yozgan she'rlari adabiyot ahliga manzur bo'lgan. Bu adibning asarlarida soxtalik yo'qligini, xolisligini hamda shoirning mahorati zamondosh davr shoirlari Xoja A'zam Shariy, Afzal Maxdum Pirmastiy tomonidan yuqori baholangan.

Manbalar va metodlar.

Tadqiqot qilinayotgan mavzu ya'ni amirlikdagi ijtimoiy hayot bilan yaqindan tanishish uchun Vozeh tomonidan yaratilgan asarlarni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

Ilk guruhga olim tomonidan yozilgan va bugungi kungacha ko'p tadqiq etilgan uning mashhur asari "Tuhfat-ul-ahbob fi taskiratul ashob" tazkirasi kiradi. "Tuhfat-ul-ahbob" XIX asrning ikkinchi yarmidagi ko'zga yaqqol tashlanadigan ilmiy va adabiy asarlardan biridir va

muallifning qaydlariga ko'ra, 1871 yilda tugallangan. So'nggi guruhga "Aqoid-un-niso" asarlari Vozehning hajman kichik asarlaridan biri bo'lib, uning yozilgan yili aniq ma'lum emas.

Taxminlarga ko'ra asar 1882-1883 yillar davomida yozilgan bo'lishi mumkin. Muallifning so'ziga ko'ra, asar «ayollarning holati va xatti-harakatlari» haqida bo'lib, 16 ta kichik bobdan tashkil topgan. Muallif 16 bobda o'sha davrda ayollarning xurofiy va salbiy odatlarini, islomiy shariat nuqtai nazaridan, hazilomuz tarzda bayon etadi. Asar hajviy xarakterga ega bo'lib, unda o'sha davr ayollarining ishlar, xulq-atvor va noto'g'ri fikrlari masxara qilinadi.

Bu asar mazmunidan ma'lum bo'ladiki, XIX asr Buxoroda ayollar o'rtasida bir qancha xurofiy urf-odatlar, urf-odatlar amal qilgan.

O'rganilayotgan mavzu umumiy tarzda, ba'zan alohida ijodkor yoki davr misolida ilmiy nazardan o'tkazilgan va bu borada yaxshi tadqiqotlar yaratilgan.

Natija va muhokama

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi Markaziy Osiyodagi muhim madaniy, siyosiy va intellektual markazlardan biri bo'lib, ushbu davrda axloqiy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Bu qadriyatlar o'z navbatida o'sha davrning diniy, siyosiy va intellektual an'analari bilan chambarchas bog'liq edi. Bunday axloqiy qadriyatlarni anglashda muhim manba sifatida Qori Rahmatullohi Vozehning "*Tuhfat-ul-Ahbob fi Tazkira-t-al-As'hab*" (Do'stlarning sovg'asi: Shaxsiyatlar biografiyasi) asari xizmat qiladi.

Uning *Tuhfat-ul-Ahbob* asari nafaqat taniqli shaxslarning biografiyasi sifatida, balki Buxoro jamiyatidagi qadrlangan fazilatlar va axloqiy printsiplarni ifodalovchi asar sifatida ham ahamiyatlidir. Keyingi davr olimlari bu asardan juda ko'p marotaba foydalanganliklari asarning qiymati qanchalik ulug' ekanligini ko'rsatadi. Maqolaning asosiy mazmuni olimning "Aqoid-un-niso" risolasi orqali ochib beriladi. "Aqoid-un-niso" ning Muqaddima qismida ulamo, fuzalo va fuqarolarning ismlari to'g'risida ma'lumot keltiriladi. O'z davri ijtimoiy ahvoli haqida gapirar ekan Qori Rahmatulloh Vozeh ayollarning jamiyatda tutgan o'rni yetarli darajada ta'minlanmaganligi, ularning erkinligi o'z qo'lida emasligi, savodxonlik darajasi pastligi haqida to'xtalib o'tadi. Muallif XIX asrda yashab o'tgan Bibishoh Zaynab, Bibiqalmoq Allogo'y, Bibixol Jo'yboriy kabi ayollar haqida to'xtalib, ular misolida ayollar muammolarining yechimini taklif qiladi. Mazkur davrda ayollar orasida ilm-fanga umrini baxshlaganlar ozchilikni tashkil qilganligi sababli, ular barmoq bilan sanoqli edi. Ayollar ko'pchiligi savod chiqarishni, o'qishni xoxlaydi, lekin ulaning erki, ixtiyori o'z qo'lida emas. Yosh qiz-juvonlar ko'pchiligi uy-ro'zg'or ishlari, qaynota, qaynona, er va farzand tarbiyasiyu xizmatidan ortmaydi. Vozeh oiladagi yoshi ulug' ayollarni hurmat qilish kerakligiga e'tibor qaratgan. Ma'rifatparvarning bu g'oyalari yosh avlodda kattalarga hurmatda bo'lish va kelin-qaynona o'rtasidagi munosabatlarni tartib solishda yordam beradi. Qori Rahmatulloh Vozeh "Aqoid un-niso" asarida xotin-qizlar masalasiga tanqidiy yondashib, jamiyatda ayollarning o'rni yo'qligi, ularning sha'ni va kelajagi uchun jamiyat qayg'urmasligi haqida ma'lumot beradi. Oilada ayollarning huquqi cheklanganligi uchun aksariyat ayollar hayotlarini turli xil duoxonlar, ins - jinslarga ishonish, ko'r-ko'rona tabobat amallarini bajarish kabi mazmunsiz, foydasiz ishlar bilan mashg'ul bo'lganlar. Vaholanki tarixdan ma'lumki sharq ayollari azaldan o'zlarini emas balki, farzandlarini aqlli dono va albatta buyuk bo'lishini istab harakat qilganlar

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro amirligidagi axloqiy qadriyatlar Islomiy prinsiplarga, ilmiy an'analarga va ijtimoiy odatlarga asoslanib shakllangan.

Vozeining *Tuhfat-ul-Ahbob* asari ushbu qadriyatlarni o'zida aks ettiradi, shu bilan birga, o'z zamonasining axloqiy standartlarini ko'rsatib beradi. Ilmga hurmat, shaxsiy halollik, diniy e'tiqod, jamiyatga mas'uliyat va adolat kabi qadriyatlar Buxoro jamiyatining axloqiy asoslari bo'lib, Voze asari orqali bu qadriyatlar nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyatning umumiy madaniy va ijtimoiy hayotida ham ta'sir ko'rsatgan.

REFERENCES

1. Ebrahim Hudoyor. Vazeh Bukharayi and his significant role in Persian literary biography writing in Transoxiana // "Literary art" scientific journal.-Volume12, Issue3 - September, 2020. <https://doi.org/10.22108/liar.2020.122171.1826>
2. Akyuz Murat. Qarirahmatullah Vozeh and His Antology NAMEDTOHFE-TUL AHBAB FI TADHKIRA-TUL AS'HAB// Journal of Social Research and Behavioral Sciences.- 2020, Volume 6, Issue 11, p. 102-113
3. Собрание восточных рукописей академии наук Узбекской ССР / под ред. проф. А.А. Семенова. Т.1. Ташкент, 1952. –С. 377-378.
4. Ҳодизода Р. Адаби, ти тоҷик дар нимаи дуввуми асри XIX. –Душанбе: Дониш, 1968. – 294 с
5. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №2, 2024 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2022: 6.698 DOI: 10.5281/zenodo.13996355
6. : Неъматзода Т. Дар бораи Возеҳ ва асари ӯ "Савонех ул-масолик фй фаросих ул-мамолик". – Сталинобод: Нашр. Давл. Тоҷик., 1957. – 48 с.; Неъматзода Т. Возеҳ. – Дешанбе: Ирфон, 1965. – 230 с.
7. XXII Международной научно-практической интернет-конференции «Проблемы и перспективы развития науки в начале третьего тысячелетия в странах Европы и Азии» http://conferences.neasmo.org.ua/uploads/conference/file/25/conference_30-31.1.2016.pdf
8. Парвиззон Махаммадзода Ахмадҷонов ҚОҶИ РАҲМАТУЛЛОҶИ ВОЗЕҲ ВА АНЪАНАИ ТАЗКИРАНИГОҶИ ДАР НИМАИ ДУЮМИ АСРИ XIX Academic Research in Educational Sciences/ DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476/ https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_12/1472-1476.pdf